“O‘zkimyosanoat” AJda “Cargill” kompaniyasi vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

// 26 October 2024 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-cargill-kompaniyasi-vakillari-bilan-uchr

“O‘zkimyosanoat” AJda “Cargill” kompaniyasi vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.



Uchrashuvda Jamiyat boshqaruv raisining o‘rinbosarlari Akobir To‘xtayev, Akbar Kurbanov hamda “Cargill” kompaniyasining “Savdo va tuzilmaviy moliyalashtirish” yo‘nalishi bo‘yicha vitse-prezidenti Ivan Xlopov hamda mas’ullar ishtirok etishdi.

Unda eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish, “O‘zkimyosanoat” AJning moliyaviy hisobot xalqaro standartlari (MHXS) bo‘yicha hisoboti batafsil tahlil qilindi.

Shuningdek, “Cargill” kompaniyasi vakillari tomonidan “O‘zkimyosanoat” AJning strategik loyihalarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli investitsiyalar jalb qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, barqaror rivojlanish istiqbollari uchun korporativ kredit resurslari ajratilishiga qiziqish bildirildi.





“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati